



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 442 sahifa,
16-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifadni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlar misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'loy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloyev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarning og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций среднего воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	
Produktiv nutq ko'nikmalari orqali nutq aktlarini o'qitish samaradorligi.....	421
<i>Sadikov Erkin Tursunovich</i>	
Проблемы формирования письменной коммуникативной компетенции у студентов выпускных курсов высших учебных заведений	424
<i>Раджабова Зебинисо Анваровна</i>	
Pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya.....	427
<i>M.U. Raxmanova</i>	



Muammoli o'qitish asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	431
Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna	
9–10 yoshli o'quvchilar orasidagi nizolarni korreksion yondashuv bilan boshqarish	435
Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich, Yarbekova Yulduz Bahromjon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish	439
Mo'minova Madina, Mamasodiqova Saida	



MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH



Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna

Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0001-8943-2007

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muammoli ta'limdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Muammoli ta'limning mazmun-mohiyati, uni boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llash shakllari hamda usullari tahlil qilingan. Shuningdek, muammoli vaziyatlar, muammoli savollar va topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi hamda bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodiy qobiliyat, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article explores the pedagogical potential of using problem-based learning to develop the creative abilities of primary school students. The study examines the essence of problem-based learning and analyzes the forms and methods of its application in primary education. Particular attention is given to the creation of problem situations and the use of problem-based questions and tasks aimed at fostering independent thinking, creative activity, and cognitive interest among students. The paper also highlights the impact of problem-based learning on improving lesson effectiveness and enhancing the thinking processes of young learners.

Key words: primary education, creative abilities, problem-based learning, problem situations, creative thinking, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические возможности использования проблемного обучения в развитии творческих способностей учащихся начальных классов. Проанализированы сущность проблемного обучения, а также формы и методы его применения в образовательном процессе начальной школы. Особое внимание уделено созданию проблемных ситуаций, использованию проблемных вопросов и заданий, направленных на развитие самостоятельного мышления, творческой активности и познавательного интереса учащихся. Показано влияние проблемного обучения на повышение эффективности учебного процесса и изменения в мыслительной деятельности младших школьников.

Ключевые слова: начальное образование, творческие способности, проблемное обучение, проблемная ситуация, творческое мышление, педагогические технологии.

KIRISH

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy, intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati, fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish o'ta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Chunki kelajakda mamlakatimizning tayanchi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamol toptirishimiz, aql-zakovatlarini o'stirishimiz ko'p jihatdan maktab tarbiyalanuvchilari bilan olib borayotgan ishlarimiz, tadbirlarimizga bog'liq. Shu jihatdan, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tarbiyalash jarayoni Pedagogika fani konsepsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda yondashishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sharq mutafakkirlari ham o'zlarining didaktik asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda, aqliy qobiliyati, ilmiy salohiyati, iste'dodi va salohiyatini takomillash-tirishga e'tibor berganlar. Masalan, buyuk Jaloliddin Davoniy insonning aqliy qobiliyati, ilmiy o'quvi, iste'dodi va salohiyatini tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor beradi:

- *Birinchisi* – zukkolik. Zukkolikni tarkib toptirish uchun insonda natijaga erishishda tajriba va harakatchanlik talab etiladi;
- *Ikkinchisi* – fahm tezligi. Fahm tezligini tarbiyalashda inson diqqatini zarur va muhim narsalarga, ya'ni hal etilayotgan masalalarning ichidan eng muhimini ajratib olish qobiliyati;
- *Uchinchisi* – zehn o'tkirligi. Hal etilayotgan muammoni qiyinchiliksiz, oson yo'l bilan hal etish;
- *To'rtinchisi* – bilimlarni tez egallash qobiliyati. Bunda bilimlarni egallashda butun diqqatini o'rganilayotgan muammoga qaratish va uni o'zlashtirib olishga erishish;
- *Beshinchisi* – qo'yilgan muammoni tez anglab olishga butun diqqatini qaratish;
- *Oltinchisi* – o'rganilgan bilimlarni esda saqlash qobiliyati;
- *Yettinchisi* – xotirani mustahkamlash qobiliyati ^[2].

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan barcha ishlar faoliyatni ijodkorlikka yo'naltiradigan ilmiy bilish masalalari bilan bog'liq ekan. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish tizimli, maqsadga muvofiq, yangicha yondashuv asosida samarali natijalarga erishish mumkin. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'limni insonparvarlashtirish, shuningdek, differensial yondashuv, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish va o'z-o'zini anglash, ta'limda tarixiy tajribalardan foydalanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo'lib, bular o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda muammoli vaziyatlar yaratish, mashg'ulotlarga maqsadli yondashuv, o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, axloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini faoliyatning turli shakl va metodlarini egallab olishga yo'naltiriladi.

Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'quvchi shaxsining tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga, ijodiy qobiliyatini shakllantirishga, uni o'stirish yo'llarini topishga qaratilgan. Oxirgi yillardagi fan kashfiyotlari shuni ko'rsatadiki, fikrlash jarayonlarini sinf sharoitida va sinfdan tashqari paytlarda ham o'stirish, bunga qisqa, qulay yo'llar bilan erishish mumkin. Mustaqil rivojlana-yotgan, erkin demokratik davlat qurilishiga o'z hissasini qo'sha oladigan, analitik va tanqidiy mushohada qilish qobiliyatiga ega, fikrlash jarayonida yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik elementlarini o'zida mujassam-lashtirgan tafakkur egasini, ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga har tomonlama qodir shaxsni shakllantirish o'ta dolzarb masaladir. Bu muammoning yechimini topishda ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatni shakllantirish metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o'quvchi shaxsi, uning bilimga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari asosiy muammo bo'lib qolaveradi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya mazmuni yangilanib bormoqda, ya'ni "ijodiy qobiliyat" kategoriyasining keng talqin qilini-shiga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mustaqilligimizni his eta oladigan, o'zligini anglab yetadigan fuqarolarni tarbiyalash, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas'uliyatni angelaydigan yetuk, aqli, intellektual, kreativ fikrlaydigan shaxsni shakllantirish kabi vazifalarni qo'yadi. O'zbek olimasi V. Karimova ta'kidlashicha: "Qobili-yatlar – shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlariki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatkichlari, yutuqlarini ta'minlaydi. Muammoli ta'limning asosiy maqsadi – Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirish nati-jasida bilimlarni amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iborat".

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, qobiliyat shaxs taraqqiyotining dinamik ko'rsatkichi sifatida ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, muammoli ta'lim sharoitida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyatga tayyorligi qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning indi-vidual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'in-disi muammoli ta'lim deyiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar yig'ish jarayonida kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba va diagnostik topshiriqlar usullaridan foydalanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini aniqlash maqsadida muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ishlab chiqildi va ular orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish hamda ijodiy yondashuvi o'rganildi. Shuningdek, o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali muammoli ta'limni qo'llash tajribalari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, natijalar umimlashtirildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning faoliyatidagi o'zgarishlar dinamikasi kuzatilib, muammoli ta'limning samaradorligi aniqlashda statistik va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muammoli ta'lim quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Muammo
2. Muammoli savol
3. Muammoli vazifa
4. Muammoli topshiriq
5. Muammoli vaziyat.

Muammoning o'zi yunoncha "problem" so'zidan olingan bo'lib, vazifa, topshiriq degan ma'nolarni anglatadi. Muammoli vaziyat – subyektning psixologik holatini ifodalab, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikning paydo bo'lishi, uni zudlik bilan hal qilishga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarini izlash, ularni topib hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi. Bu esa muammoga psixologik jihatdan yondashishni talab etadi.

Masalan, o'quvchilarning yosh xususiyati va bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o'rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish

Chunonchi, o'rganilayotgan har bir mavzu o'quvchilardan tovushlar, so'zlar va gaplarni qiyoslashni, shu asosda umimlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o'z-o'zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi, o'quvchilarda "Nima uchun?" degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug'iladi. Masalan, "unli va undosh tovushlar" mavzusi o'rganilayotganda o'quvchi avval unli va undosh tovushlarni to'g'ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so'zlar, so'zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi ^[3].

Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish

O'qituvchi dars mashg'ulotini muammoli savolni o'rta tashlash bilan boshlaydi:

1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezyapsiz?
2. Oltita unli va harf ishtirok etgan so'z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko'ring, qanday o'zgarishlarni sezyapsiz?
3. Undosh tovushlarni talaffuz etib ko'ring. Shovqin ovozdan hosil bo'lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo'lgan undoshlarni alohida yozing. Agar topshiriqlarni bajarishda yangi qiyinchilik tug'lsa, namuna ko'rsatiladi.

Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, "O'zbekiston qovunlari" rasmlari va nomini berib, mavzu asosida matn yaratish topshirilishi mumkin.

Muammoli vaziyat yaratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'zlarni muayyan guruhlarga birlashtirib, umumiy ma'noli so'zning xususiy ma'nosini yoki xususiy ma'noli so'zlarning umumiy ma'nosini topishni talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o'quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o'nlab, hatto yuzlab uyadoshlari borki, o'qituvchi umumiy ma'noli so'zni o'quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so'zlarni topishni o'quvchilarga topshiradi:

1. Sabzavotlar: sabzi, piyoz, karam...
2. O'quv qurollari: kitob, daftar, qalam va hokazolar.



Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta'limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko'proq e'tibor berilishi lozim. O'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning xarakterli xususiyati ularning psixikasining zaif tomonlariga sustlik bilan moslashish emas, balki o'quvchilar maksimal darajada faollashishi uchun ularning aqliy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish tamoyili bo'lmog'i kerak. Tarbiyachi va o'qituvchilar ayrim bolalar qobiliyati o'rtacha ekanligi yoki qobiliyatsizligi, hatto mukammal emasligi haqida paydo bo'lgan tasavvurni sezdirmasliklari lozim. Bunday o'quvchilar o'zlari tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayoniga asta-sekinlik bilan moslashib boradilar.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan barcha ishlar faoliyatni ijodkorlikka yo'naltiradigan ilmiy bilish masalalari bilan bog'liq ekan. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish tizimli, maqsadga muvofiq, yangicha yondashuv asosida samarali natijalarga erishish mumkin. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'limni insonparvarlashtirish, shuningdek, differensial yondashuv, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish va o'z-o'zini anglash, ta'limda tarixiy tajribalardan foydalanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo'lib, bu o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda muammoli vaziyatlar yaratish, mashg'ulotlarga maqsadli yondashuv, o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, axloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini faoliyatning turli shakl va metodlarini egallab olishga yo'naltiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar, savollar va topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati, ijodiy yondashuvi hamda bilishga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda muammoli topshiriqlarni tizimli ravishda qo'llash yuqori natijadorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, muammoli ta'lim o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talablaridan biri bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- boshlang'ich ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;
- dars mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlar yaratishga qaratilgan metodik ishlanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- o'qituvchilarning muammoli ta'limni qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirish;
- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muammoli topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni muammoli ta'lim bilan integratsiya qilish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, muammoli ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, uni ta'lim jarayoniga tizimli va maqsadli joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "Sharq", 1998. – 12-bet.
2. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika. – Toshkent: "Fan", 2004. – 22–28-b.
3. Shermatov M. Muammoli ta'lim imkoniyatlari. Maktabda o'zbek, rus tillari va adabiyoti. – 1991. – № 3. – B. 23–24.
4. Munavvarov A. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
5. Abdullayeva Sh. A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 112–118-betlar.
6. Karimova V. M. Psixologiya (o'quv qo'llanma). – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.